

## O'zbekiston Respublikasida Iste'mol narxlari indeksi (INI)

2025-yil oktyabr oyi

### Ma'lumotlar jadvaliga havolalar:

[MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha iste'mol narxlari indeksi](#)

[O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan](#)

- I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI
- II. Hududlar kesimida yig'ma INI
- III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI
- IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi
- V. Uslubiy ma'lumotlar
- VI. Foydali havolalar

### I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI


2025-yil oktyabr oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,6 %**, 2024-yilning dekabriga nisbatan – **105,7 %**, yillik nisbatda **107,8 %** ni tashkil etdi.

[Taqqoslash uchun: 2024 yil oktyabr oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi 100,8 %, 2023 yilning dekabriga nisbatan 107,7 %, yillik nisbatda 110,2 % ni tashkil etgan.](#)

Yig'ma INI o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2025-yilning yanvar-oktyabrda **0,6 %** (2024-yilning yanvar-oktyabrda **0,7 %**)ga teng bo'ldi.

Meva va sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, oylik INI ko'rsatkichi **100,5 %** (2024-yil oktyabr oyida **100,7 %**), 2025-yil yanvar-oktyabr oylari uchun – **107,2 %** (2024-yil yanvar-oktyabr oylarida **110,5 %**), yillik nisbatda – **108,6 %** (2024-yil oktyabr oyida **112,2 %**)ni tashkil etdi.

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da



Quyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha joriy yilning oktyabr oyida asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishlari keltirilgan:

### Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limi.

Asosiy mahsulotlar qatorida oy davomida narxlarning o'sishi quyidagi turlar bo'yicha qayd etildi: tuxum – **4,1 % (-0,4 %<sup>1</sup>)**ga, suyakli mol go'shti – **1,7 % (+24,2 %)**ga, suyakli mol go'shti – **1,6 % (+25,3 %)**ga, qo'y go'shti – **1,6 % (+27,3 %)**ga, sut – o'rtacha **1,2 % (+7,2 %)**ga, o'simlik yog'larining narxlari o'rtacha **0,8 % (+26,7 %)**ga o'sishi qayd etildi.

<sup>1</sup> Bu yerda va keyingi o'rinlarda, agar boshqa izohlar keltirilmagan bo'lsa, qavs ichida yillik ko'rsatkichlar keltirilgan, ya'ni o'tgan yilning shu oyi bilan solishtirilgan (2025 yil oktyabri 2024 yil oktyabriga nisbatan). Musbat qiymat o'sishni, "minus" belgilari esa narxlarning pasayishini bildiradi)

Ma'lumot uchun: Shu yilning oktyabr oyida muzlatilgan import mol go'shti narxlari barqaror bo'lishiga qaramay, mahalliy go'sht narxining o'sishi davom etdi. Respublikada 1 kilogramm mol go'shtining o'rtacha narxi 2 000–3 000 so'mga oshdi.

Oy davomida asosan guruch va guruch oqshog'i – 2,5 % (-17,9 %)ga, shakar – 3,1 % (-5,0 %)ga, parranda go'shti (tovuq boldiridan tashqari) – 1,0 % (+5,4 %)ga, tovuq boldiri va son qismlari narxining 0,4 % (+5,9 %)ga pasayishi kuzatildi.

Asosiy meva-sabzavot mahsulotlaridan pomidorning 61,0 % (-5,3 %)ga, bodring – 58,2 % (-17,6 %)ga, baqlajon – 11,3 % (-29,9 %)ga, bulg'or qalampiri narxlarida 10,6 % (-19,7 %)ga sezilarli oshish kuzatildi. Limon – 9,9 % (+45,1 %)ga, sabzi – 5,7 % (+45,5 %)ga, karam – 5,4 % (+24,7 %)ga, piyoz – 5,3 % (+18,9 %)ga va kartoshka narxlarining 2,0 % (+17,9 %)ga sezilarli pasayishi kuzatildi.

***Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'limi.***

2025-yil oktyabr oyidan boshlab, ayrim hududlarda maishiy chiqindilarni olib ketish, hamda issiq suv va issiqlik ta'minoti tariflari oshdi. Yuqorida ko'rsatilgan xizmatlarning oylik iste'mol indeksi respublika bo'yicha mos ravishda 104,3 %, 101,3 % va 102,7 % ni tashkil etdi. Turar joylarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun materiallar narxlari oy davomida 0,5 % (+4,2 %)ga oshdi.

***Sog'liqni saqlash xizmatlari bo'limi.***

Oy davomida dori vositalari narxi 0,4 % (+5,9 %)ga, statsionar va ambulator davolash xizmatlari 0,3 % va 0,2 % (+7,6 %)ga va sog'liqni saqlashning boshqa xizmatlari 0,3 % (+10,4 %)ga oshdi.

***Transport bo'limi.***

Benzin narxi oy davomida 101,5 % (111,7 %)ga, shu yil boshiga nisbatan esa 107,4 % ni tashkil etdi. Joriy yilning oktyabr oyida AI-80 benzinining narxi bir litri uchun 8 400–9 700 so'm, AI-91 va AI-92 uchun 10 500 dan 13 700 so'mgacha, AI-95 va AI-98 uchun 12 000 dan 18 000 so'mgacha oralig'ida, hamda kuzatuvdagi eng qimmat markadagi AI-100 benzinining narxi bir litri uchun 20 500 so'mni tashkil qildi.

Taqqoslash uchun: Oktabr oyida benzin narxlarini ro'yxatdan o'tkazish 607 ta obyektlarda amalga oshirildi va qayd etilgan narxlarning umumiy soni 1445 tani tashkil etdi. Ulardan:

– AI-80 markasi bo'yicha umumiy 507 ta narx yig'ildi, shundan, 415 tasi soliq organlari ma'lumotlari bazasidan olindi. Respublika bo'yicha ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi 1,6 % ga oshdi.

– AI-91 markasi bo'yicha umumiy 60 ta narx yig'ildi, shundan, 53 tasi soliq organlari ma'lumotlari bazasidan olindi. Ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi 0,2 %ga oshdi.

– AI-92 markasi bo'yicha umumiy 564 ta narx yig'ildi, shundan, 486 tasi soliq organlari ma'lumotlari bazasidan olindi. O'tgan oyning o'rtacha narxida saqlanib qoldi.

– AI-95 markasi bo'yicha umumiy 267 ta narx yig'ildi, shundan, 240 tasi soliq organlari ma'lumotlari bazasidan olindi. O'rtacha narxi 0,6 % ga oshdi.

– AI-98 markasi bo'yicha umumiy 26 ta narx soliq organlari ma'lumotlari bazasidan olindi, ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi 0,5 % ga tushdi.

– AI-100 markasi bo'yicha umumiy 21 ta narx soliq organlari ma'lumotlari bazasidan olindi, ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi 2,3 % ga oshdi.

O'rtacha narxlarni aniqlash va benzin uchun INI hisoblashda benzin markasi bo'yicha savdosi, shuningdek, barcha hududlar aholisi tomonidan iste'mol xarajatlarida benzininga sarflanadigan umumiy xarajatlaridagi ulushi hisobga olindi. Umuman olganda, respublikada AI-92 markadagi benzin sotuvi ulushi yuqori bo'ldi, bu barcha sotuvdagi benzinning yarmidan ko'pini (54,2 %) tashkil etdi.

Propan uchun oylik INI ko'rsatkichi **3,3 % (-18,0 %)**ni va yuqori narx chegarasi 6 900 so'mni tashkil etdi. Oktyabr oyida metan narxida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi, faqatgina **0,1 %**ga oshdi va o'tgan yilning oktyabr oyiga nisbatan **30,5 %** yuqoriligicha qoldi.

Joriy yilning oktyabr oyidan boshlab, transport xizmatlarida Toshkent va Toshkent viloyati shahar atrofidagi poezdda yo'l haqi narxi oshirildi. Umuman respublikada ushbu xizmat turi oy davomida **2,5 % (+4,0 %)**ga qimmatlashdi. Shahar avtobuslarida yo'l haqi o'rtacha **1,7 % (+22,3 %)**ga, shaharlararo avtobuslarda esa **1,1 % (+11,1 %)**ga oshdi. Kuzatuvga tanlab olingan yo'nalishlar bo'yicha aviaqatnovlar oy davomida o'rtacha **3,5 % (17,3 %)**ga, shaharlararo poyezdlar uchun tariflar esa o'rtacha **0,2 % (7,0 %)**ga arzonlashdi, bu esa milliy valyutaning mustahkamlanishi bilan izohlanadi.

***Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'limi.***

Nodavlat sektor tomonidan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarida oylik narx o'zgarishi qayd etildi. Bunda repetitorlik xizmati **1,1 % (7,4 %)**ga, chet tillari kurslarida o'qish **0,5 % (8,6 %)**ga, xususiy bolalar bog'chalari narxlari – **0,4 % (5,4 %)**ga oshdi.

***Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo'limi.***

Oy davomida umumiy ovqatlanish xizmatlari narxlari **0,5–0,7 %**ga oshdi, mehmonxona xizmatlari narxlari barqarorligicha qoldi.

***Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar bo'limi.***

Joriy yilning oktyabr oyida pul o'tkazmalari uchun xaq to'lash **1,9 % (-4,8 %)**ga tushgan bo'lsa, elektron to'lov tizimlari orqali pul o'tkazmalari esa, aksincha, o'rtacha **2,7 % (8,7 %)**ga oshdi.

***Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar bo'limi.***

Bo'limdagi tovarlar va xizmatlar uchun qisqa muddatli INI diapazoni **99,8 %** (bolalar tagligi)dan **105,0 %** (nikoh uzugi)gacha tashkil etdi.

Boshqa bo'limlarda tovar va xizmat narxlari o'zgarishi ta'siri yuqori bo'lmadi, yoki yig'ma ko'rsatkichga sezilarli darajada ta'sir qilmadi.

Umuman, bo'limlar kesimida qisqa muddatli INI diapazoni **99,7 %** ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar")dan **101,0 %** ("Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar") oralig'ida kuzatildi. O'tgan yilning oktyabr oyiga nisbatan qisqa muddatli INI ko'rsatkichi deyarli barcha bo'limlarda past ko'rsatkichni qayd etgan.

2024-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **116,1 %** ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari"), quyi chegarasi – **99,4 %** ga ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar") yetdi. 2025-yil yanvar-oktyabr oylarida narxlar o'sishining o'tgan yilning tegishli ko'rsatkichlari bilan solishtirganda, "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" (mos ravishda **116,1 %** va **137,0 %**), "Sog'liqni saqlash" (mos ravishda **105,1 %** va **118,9 %**), "Ta'lim sohasidagi xizmatlar" (mos ravishda **104,8 %** va **113,3 %**) bo'limlarida o'sish sur'atida sezilarli sekinlashish qayd etildi.

Yillik nisbatdagi INI chegaralari 2025-yilning oktyabr oyida **99,6 %** ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar")dan – **117,1 %** ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari")gachani tashkil etdi. O'tgan yilning oktyabriga nisbatan narxlarning yillik o'sishining pasayishi "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" (mos ravishda **117,1 %** va **140,1 %**), "Sog'liqni saqlash" (mos ravishda **106,7 %** va **120,4 %**), "Ta'lim sohasidagi xizmatlar" (mos ravishda **105,5 %** va **114,6 %**) bo'limlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat narxlari indeksi nisbatan past darajasiga qaramay, aksincha, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati tezlashgan. "Oziq-ovqat va alkogolsiz ichimliklar" bo'limidagi yillik INI ko'rsatkichi shu yilning oktyabr oyida **105,8 %** ga yetdi, 2024-yilning oktyabr oyida **101,7 %** ni tashkil etgan.

**2025-yilning oktyabr oyi MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, % da**

| Bo'lim nomi |                                                                      | 2025-yil<br>sentyabriga<br>nisbatan | 2024-yil<br>dekabriga<br>nisbatan | 2024-yil<br>oktyabriga<br>nisbatan |
|-------------|----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------------|------------------------------------|
| I.          | Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar                      | 100,9                               | 102,8                             | 105,8                              |
| II.         | Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari                           | 100,5                               | 105,3                             | 106,9                              |
| III.        | Kiyimlar va poyabzallar                                              | 100,2                               | 101,8                             | 103,7                              |
| IV.         | Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari    | 100,5                               | 116,1                             | 117,1                              |
| V.          | Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy mebel, gilamlar va gilam mahsulotlari | 100,1                               | 101,9                             | 103,4                              |
| VI.         | Sog'liqni saqlash                                                    | 100,3                               | 105,1                             | 106,7                              |
| VII.        | Transport                                                            | 100,3                               | 110,8                             | 113,3                              |
| VIII.       | Axborot va aloqa                                                     | 100,0                               | 105,9                             | 105,9                              |
| IX.         | Dam olish, sport va madaniyat                                        | 100,2                               | 105,2                             | 106,7                              |
| X.          | Ta'lim sohasidagi xizmatlar                                          | 100,3                               | 104,8                             | 105,5                              |
| XI.         | Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari                              | 100,5                               | 107,6                             | 109,6                              |
| XII.        | Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar                                  | 99,7                                | 99,4                              | 99,6                               |
| XIII.       | Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar           | 101,0                               | 107,6                             | 110,0                              |

**II. Hududlar kesimida yig'ma INI**

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Surxondaryo, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida yig'ma INI 2025 yil oktyabr oyi uchun yillik INI bo'yicha o'rtacha respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan.

**2025-yilning oktyabr oyi hududlar bo'yicha INI, % da**

| Hududlar                      | 2025-yilning<br>sentyabriga nisbatan | 2024-yilning<br>dekabriga nisbatan | 2024-yilning<br>oktyabriga nisbatan |
|-------------------------------|--------------------------------------|------------------------------------|-------------------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 100,6                                | 106,2                              | 108,2                               |
| viloyatlar:                   |                                      |                                    |                                     |
| Andijon                       | 100,9                                | 105,5                              | 107,6                               |
| Buxoro                        | 100,5                                | 106,0                              | 107,9                               |
| Jizzax                        | 100,6                                | 105,0                              | 107,1                               |
| Qashqadaryo                   | 100,6                                | 105,4                              | 107,7                               |
| Navoiy                        | 100,5                                | 105,6                              | 107,5                               |
| Namangan                      | 100,5                                | 105,5                              | 107,4                               |
| Samarqand                     | 100,5                                | 105,6                              | 107,6                               |
| Surxondaryo                   | 100,5                                | 106,1                              | 107,9                               |
| Sirdaryo                      | 100,5                                | 106,0                              | 108,0                               |
| Toshkent                      | 100,5                                | 105,6                              | 107,6                               |
| Farg'ona                      | 100,6                                | 106,2                              | 108,6                               |
| Xorazm                        | 100,6                                | 105,8                              | 107,8                               |
| Toshkent sh.                  | 100,6                                | 105,1                              | 107,7                               |

### III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI

Joriy yilning oktyabr oyida tovarlarga qisqa muddatli INI **100,7 %** (2024-yil oktyabr oyida **100,9 %**)ni, 2025-yilning yanvar-oktyabrida **103,6 %** (2024-yilning yanvar-oktyabrida **102,4 %**)ni va yillik nisbatda **105,8 %** (2024-yil oktyabrida **104,7 %**)ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha **100,9 %** (2024-yil oktyabr oyida **101,1 %**)ni, yil boshidan **103,0 %** (2024-yilning yanvar-oktyabrida **99,6 %**)ni, yillik nisbatda **105,9 %** (2024-yilning oktyabrida **102,2 %**)ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha qisqa muddatli INI joriy yil oktyabr oyida **100,4 %** (2024-yil oktyabr oyida **100,7 %**)ni, yil boshidan **104,4 %** (2024-yilning yanvar-oktyabrida **106,2 %**)ni, yillik nisbatda **105,8 %** (2024-yilning oktyabrida **108,1 %**)ni tashkil etdi.


Joriy oyda xizmatlar bo'yicha INI **100,3 %** (2024-yil oktyabr oyida **100,8 %**)ni, yil boshidan **112,7 %** (2024-yilning yanvar-oktyabrida **124,9 %**), yillik nisbatda **114,4 %** (2024-yilning oktyabrida **128,7 %**)ni tashkil etdi.

#### Asosiy guruhlar bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga  
nisbatan



o'tgan yilning  
mos oyiga nisbatan



#### IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi

2025-yilning oktyabr oyidagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" yuqori ta'sir ko'rsatib, INI ko'rsatkichini **0,38 f.d. ga** (umumiy o'sishning **65,5 % i**) oshirdi. "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" va "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari oylik yig'ma ko'rsatkichni jami hisobda **0,11 f.d. ga** oshirdi. Qolgan bo'limlarda narxlarning oshishi yig'ma ko'rsatkichni yana **0,09 f.d. ga** oshirdi.

#### MIIT – 2018 bo'limlarining 2025-yil oktyabr oyida yig'ma INI o'zgarishiga ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan

|                                                                                        |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------|------|
| I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar                                     | 0,38 |
| II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari                                         | 0,01 |
| III. Kiyimlar va poyabzallar                                                           | 0,02 |
| IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari                  | 0,06 |
| V. Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish | 0,00 |
| VI. Sog'liqni saqlash                                                                  | 0,02 |
| VII. Transport                                                                         | 0,02 |
| VIII. Axborot va aloqa                                                                 | 0,00 |
| IX. Dam olish, sport va madaniyat                                                      | 0,00 |
| X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                         | 0,01 |
| XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari                                            | 0,01 |
| XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar                                               | 0,00 |
| XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar                       | 0,05 |

**Jami ta'siri**

**+0,58 f.d.**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

|                                                                                        |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------|------|
| I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar                                     | 1,22 |
| II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari                                         | 0,04 |
| III. Kiyimlar va poyabzallar                                                           | 0,18 |
| IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari                  | 1,96 |
| V. Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish | 0,10 |
| VI. Sog'liqni saqlash                                                                  | 0,27 |
| VII. Transport                                                                         | 1,00 |
| VIII. Axborot va aloqa                                                                 | 0,17 |
| IX. Dam olish, sport va madaniyat                                                      | 0,07 |
| X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                         | 0,16 |
| XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari                                            | 0,14 |
| XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar                                               | 0,00 |
| XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar                       | 0,35 |

**Jami ta'siri**

**+5,66 f.d.**

2025-yilning yanvar-oktyabr oylari uchun INI o'sishiga eng katta ta'sir bu "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar", "Transport", "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" va "Sog'liqni saqlash" bo'limlaridagi narxlar va tariflarning o'zgarishida bo'ldi (**+4,80 f.d.**, yoki umumiy o'sishning **84,8 % i**).

## V. Uslubiy ma'lumotlar

Narxlarni kuzatish va INI ni hisoblash uchun tovarlar va xizmatlarning iste'mol to'plami respublikaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan, aholi tomonidan ko'proq iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar guruhlarining reprezentativ tanlanmasini namoyon etadi. U 510 ta pozitsiyani, jumladan, 170 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, 250 turdagi nooziq-ovqat mahsulotlar va 90 turdagi xizmatlarni qamrab oladi. Aholining umumiy iste'mol xarajatlari tarkibidagi ulushi (0,1% dan kam bo'lmagan) yangi turdagi tovarlar va xizmatlarni to'plamga kiritish sharti hisoblanadi.

INI hisob-kitoblari salmoq vaznlarini shakllantirishga xizmat qiladigan aholi xarajatlarning tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar (uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari) va iste'mol narxlari o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik holatini aks ettirishini va iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasini hisobga olgan holda tanlab olingan Nukus shahri, Toshkent shahri, viloyatlar markazlari va tanlanma asosda shaharlar va tumanlar markazlaridan to'planadi.

Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuv turg'un savdo va xizmat ko'rsatish sohasi shahobchalari va ko'chma savdo (palatka, rastalar v.b.) obyektlarida tanlanma asosida o'tkaziladi. Hisob-kitoblarda muqobil manbalardan olingan ma'lumotlar (soliq qo'mitasi ma'lumotlari va boshqa ma'muriy ma'lumotlar) ham qo'llaniladi.

Kuzatuvda 190 mingga yaqin narx kotirovkalari qamrab olingan.

Ma'lumotlarni to'plash har oyning 10-20-sanalari oralig'ida amalga oshiriladi.

INI respublika aholisining joriy iste'mol tuzilmasini hisobga olmaganligi sababli yashash qiymati emas, balki faqatgina narx o'zgarishlari ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xususiy (shaxsiy) inflyatsiya – bu alohida uy xo'jaligining iste'mol savatidagi tovarlar narxlari umumiy darajasining o'sishi. Xususiy inflyatsiyani tahlil qilishning zaruriyati shundan iboratki, shaxsiy iste'mol savati statistika organlari tomonidan foydalaniladigan o'rtachalashtirilgan iste'mol savatidan farq qilishi mumkin.

## VI. Foydali havolalar

[Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari \(tariflari\) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha metama'lumotlar](#)

[O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi \(O'R MIIT – 2018\)](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: konsepsiya va uslubiyat \(2020\)](#)

